

Toshkent ilmiy-tadqiqot observatoriyasi 150 yoshda!

2018-yil 15-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti tomonidan Toshkent ilmiy-tadqiqot observatoriyasining 150 yilligiga bag‘ishlangan “Zamonaviy seysmologiyaning dolzarb muammolarini yechishda geofizik usullar” mavzusidagi Xalqaro konferensiya o‘z ishini boshladi.



2 kun davom etadigan ushbu konferensiyada respublikamizdan 100 ga yaqin, Xitoy, Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi davlatlardan 50 ga yaqin olimlar ishtirok etishmoqda. Konferensiya ishida seysmik xavfni baholash, zilzilani prognoz qilish va seysmik riskni kamaytirish muammolari hamda zamonaviy geodinamika va iltosferaning seysmikligi kabi masalalar muohokama qilinadi.



Ma'lumki, O'zbekistonda geofizik kuzatuvlar 1868-yilda Turkiston harbiy okrugining topografiya bo'limida Toshkent fizik observatoriyasi tashkil etilgandan so'ng doimiy va maqsadli o'tkazila boshlanlandi. 1876-yilda Astronomiya observatoriyasi alohida ajralib chiqdi, fizik observatoriya esa geofizikaga yo'naltirildi. 1924-yilda O'zbekiston hukumatining qaroriga asosan observatoriya "Toshkent ilmiy-tadqiqot observatoriyasi" nomi bilan qayta tashkil etilgan va uning faoliyat sohasi va moddiy-texnik bazasi kengaytirilgan.